

## O'ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Abdijalilova Ruxshona Navro'z qizi*

*E-mail-abdijalilovarushona@gmail.com*

*Tel: + 998(77-066-35-06)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o'zbek xalqining qadriyatlaridan biri bo'lgan ism, ism tanlash, ismlarning ma'nolar, qo'yilish o'rinlari hamda sabablarini sharhlashga bag'ishlangan. Ismlarning turli irimlar, marosimlar, makon, zamon bilan bog'liq jihatlari misollar orqali izohlangan.

**Kalit so'zlar:** Ism, onomastika, etnografiya, urf-odat, milliy an'ana.

Ismlarning etnografik ma'nosi muayyan ismning paydo bo'lishi, tanlanishi va chaqaloqqa berilishiga asos, sabab bo'lgan tushunchalarning ifodalanishidan iboratdir. Etnofafik ma'no aslida biror bir ismning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ehtiyojni anglatadigan sabab-voqea va rasm-rusmlar, udumlar, kishilarning nom orqali izhor qiladigan istak va orzulari, tilak va xohishlari haqidagi etnografik ma'lumotlar mazmunidan iboratdir.

Ismlarning yuzaga kelishi va berilishi faqatgina ma'naviy emas, balki bir qator moddiy, amaliy tadbirlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Ular chaqaloqqa ism berish paytida amalga oshiriladi. Masalan, o'zbeklarda *Sotiboldi*, *Sottiboy*, *Sotqinoy* ismlari bor. Bu ismlarning paydo bo'lishi chaqaloqni "sotib olish" udumini ado etish bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tmishda farzandlari turmasdan nobud bo'lavergan o'zbek oilalarida "sotib olish" odatiga katta umid bog'lashgan. Bu odatga ko'ra, bola tug'ilgach, xoh o'g'il, xoh u qiz bo'lsin, tarozining bir pallasiga go'dak ikkinchi pallasiga ozuqa solinardi (badavlat oilalarda ozuqa o'rniga qimmatbaho narsalar ham qo'yilgan). O'tmish ajdodlarimiz bolaning turli kasalliklarga chalinishi, nogiron bo'lib qolishi, nosog'lom tug'ilishi, chaqaloqlarning turmasdan bevaqt o'laverishi yoki kelajakda baxtsiz, omadsiz bo'lishi ma'lum yovuz kuchlarning, chaqaloq dushmanlarining ishi deb hisoblashgan.

Go'dakning dushmani deb hisoblangan bunday yovuz kuchlar xayoliy, afsonaviy, ba'zi hollarda esa moddiy (real) tushunchalar, narsa va ob'ektlardan iborat bo'lib, O'zbekistonning turli hududlarida har xil tasavvur qilingan va nomlangan. Ularning eng asosiylari quyidagilar: shayton, dev, alvasti, ajdaho, pari, azroil, yalmog'iz kampir, jin, insu jins, ajina, maston, tulpor, arvohtar, o'tgan ajdodlar ruhi,

shaytonlash, yel qoqishi, xosiyatsiz shabada tegishi, jin urishi, pari qoqishi, yong'oq tagida yotib qolish, xosiyatsiz yerda bemahalda uxlab qolish, farzandsiz ayolning nazari (suqi), yomon xulqli kishilarning nazari (suqi), ko'zi tegishi, kinna kirishi, ko'zikish, ichikish, shaytonlash, xosiyatsiz kiyimlar, ota yoki onaning qandaydir noo'rin harakatlari (gunohi), chaqaloq tug'ilgan uy (joy)ning, qolaversa bolaga qo'yilgan ismning xosiyatsizligi yoki og'irlik qilishi va boshqalar.

Kishilar qadim-qadimlardan chaqaloqni bunday yovuz kuchlardan himoya qilish choralari axtarishgan. Shu sababli ota-onalar chaqaloqni uning dushmanlaridan yashirish, yovuz kuchlarni aldash, adashtirish, chalg'itish, iloji bo'lsa ularni tamoman bartaraf qilishning turli usul va choralari o'ylab topishgan.

O'zbek tilidagi ko'pgina ismlarning yuzaga kelishi yuqorida keltirilgan rasm-rusmlar, udumlar, e'tiqod va tasavvurlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu bilan birga, juda qadim-qadimlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Binobarin, chaqaloqqa muvaffaqiyatli tanlangan va berilgan nom uning taqdiri, hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi, ism odamning ruhiyati, taqdirini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonishgan. Natijada odamlar "xosiyatli" ("qutli") va "xosiyatsiz", yaxshi va yomon ismlar bor deb hisoblashgan. Shu sababli chaqaloqning turli kasallarga chalinaverishi yoki oilada bolalarning turmasdan nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlarning mavjud bo'lishi, qolaversa farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb bilganlar. Mana shunday tasavvurlar tufayli zamonlar o'tishi bilan chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zaro farqlash, atashgina emas, balki uni turli balo-qazolardan asraydigan, muhofaza qiladigan, qutqaradigan, insonga baxtli taqdir, nurli iqbol baxsh etadigan vositaga aylana borgan. Shu tufayli kishilar qadim davrlardan bolaga ism berish ishiga nihoyatda mas'uliyat bilan yondoshishgan. Shunga ko'ra ham tildagi barcha ismlarning ma'lum sababi, asosi hamda o'ziga xos etnografik ma'nosi mavjuddir.

Ota-ona o'z farzandiga ism berishda chaqaloqda uzoq umr tilash, bolaning yetuk komil inson bo'lib yetishishi va uning kelgusida baxtli bo'lishini orzu qiladi. Mana shu istak va orzular bolaga ism tanlash va qo'yishning, bunga oid udumlarni ado etishning negizini tashkil qiladi.

"Asrovchi ismlar" mazmunan ijobiy, chiroyli nomlardan va ko'p holda qo'pol, xunuk ma'noli nomlardan tashkil topgan. Bolaga xunuk ma'noli so'zlardan yasalgan ismlarning berilishi chaqaloqni yomon ko'zlardan, ko'z tegishdan asrash, go'dakning dushmani bo'lmish yovuz kuchlarni chalg'itish, aldash maqsadi bilan bog'liqdir. O'zbek ismlari orasida anchagina "asrovchi ismlar" mavjud bo'lib, ularning asosiy guruhlari quyidagilardir:

1. Ota-onalarning o'z farzandiga sog'liq uzoq umr tilashini ifoda etuvchi ismlar: *Tursun, Turdi, To'xtopasin, O'lmas* kabi.

2. Ota-onaning o'z farzandining turli kasalliklarni yengishi, chidamli, irodali, mustahkam bo'lib o'sishini orzu qilib qo'yilgan ismlar. Bunday ismlar, odatda, mustahkamlik ramzi bo'lgan narsalar, buyumlar, qurol-yarog'lar nomidan yasalgan bo'ladi: *Tosh, Toshboy, Toshxon, Temur, Boltaboy*. Shuningdek, ba'zi ismlar bevosita mustahkamlik, irodalik tushunchalarining nomi bo'lgan so'zlardan yasaladi: *Mahkam, Mahkamoy* va b.

3. Yashovchanlik, barhayotlik, chidamlilik, uzoq umr ramzi bo'lmish daraxtlar, narsalar nomidan yasalgan ismlar: *Chinor, Chinora* va b.

4. Yoqimsizlik, noxushlik, achchiqlik ramzi hisoblanuvchi narsalar, o'simliklar nomidan yasalgan ismlar: *Sarimsoq, Suyunboy* va b. Mana shunday ismlar qo'yilsa chaqaloqning dushmani, yovuz kuchlar bolaga yaqinlashmaydi, undan nari ketadi deb hisoblashgan.

5. Ba'zan ataylab xunuk ma'noli nomlarni qo'yishgan: *Yomon-bola, Itolmas* kabi. Kishilar bola shunday nomlansa, e'tiborsiz bo'ladi, unga ko'z tegmaydi deb hisoblashgan.

6. Ism qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) - *Oy, Kun* (Quyosh) va boshqa osmoniy jismlar qudratiga sig'inish asosida qo'yilgan: *Oybuvi, Oyxon, Oygiz, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Tangriberdi, Tangribergan* va b.

7. Kishilar qadimiy davrlardan beri ba'zi nodir metallar, ma'dan, toshlar, masalan, dur, zumrad, oltin, la'l, marvarid, marjon, lojuvard, yoqut va b. chaqaloqni kasalliklardan, balo-ofatlardan asraydi deb bilishgan. Mana shu e'tiqodga ko'ra bolalarga (ko'proq qiz farzandlarga) *Durdona, Durbek, Zumrad, Gavhar, Oltinoy, Yoqutoy, Marjonbibi, La'lixon* kabi ismlar berilgan. Keyinchalik bu nomlar go'zallik, nafosat, azizlik, qadr-qimmat ma'nolarini ham ifodalaydigan bo'lgan.

8. Muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ba'zi hayvonlar, jonivor, qushlarning nomlaridan yasalgan ismlar: *Bo'riboy, Bo'riniso, Boybo'ri, Qashqirboy, Arslon, Yo'lbars, Qarchig'ay, Lochin, Burgut* va b.

9. Ba'zi chaqaloqlar badanida qandaydir ortiqcha belgilar, jismoniy kamchiliklar (xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va b.) bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilar bolaga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligiga, hayotiga, kelajak turmushiga xavf tug'diradi deb tushunilgan. Bunday norasidalarni o'z nomi bilan tug'ilgan bola deb hisoblashgan va ularga o'sha nuqsonlar, ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. Chunonchi: *Xolboy, Xolbibi, Anor, Anorboy, Anorxon, Mengli, Mengliboy, Menglixon, Nishonboy, Toji, Ortiqboy* va b.

10. Ota-onalar chaqaloqqa xavf tug'diradigan yovuz kuchlarni chalg'itish, aldash orqali bolani turli kasallik va xavflardan saqlab qolmoqchi bo'lishgan va mana shu niyatga xos hamda mos ismlarni ijod qilishgan: *Aldan, Aldanboy, Aldanoy, Almash, Yanglishoy, Begona* va b.

11. Chaqaloqqa berilgan ismni yashirish, uni boshqa qo'shimcha ism yoki laqab bilan yuritish, ba'zan esa bolaga umuman ism qo'ymaslik udumlari ham bolani yomon ko'zlardan, bevaqt o'limdan asrashga qaratilgan harakatdir. Masalan, o'zbek ismlari orasida *Nomsiz, Oshsiz* kabi ismlar uchraydi.

12. Diniy tushuncha va e'tikodlar bilan bog'liq nomdir. Bularga quyidagi kabi ismlarni misol qilish mumkin: *Abdurahmon, Abdusalom, Abdusattor, Xayrulla*. Ba'zi ismlarning yaratilishi yoki tanlashi ko'p hollarda o'sha nomni tanlagan yoki ijod qilgan kishilar uchungina ma'lum bo'ladi. Bunday ismlarning kengroq doirada, umummilliy doirada ma'lum va tushunarli bo'lishi ushbu nomning kengroq tarqalishi, umumudum darajasiga ko'tarilishi bilan bog'liqdir. Lekin ba'zi ismlar bir oila doirasida va bir martagina qo'llanilib keyinchalik qo'llanilishdan chiqib ketishi ham mumkin. O'zbek tilidagi ismlarni qayd qilingan xususiyatlarga ko'ra quyidagi uchta guruhga bo'lish mumkin.

1. Umummilliy, umumudum ismlar. Bunday ismlar o'zbek xalqi antroponimiyasi uchun mushtarak nomlar bo'lib, ularning paydo bo'lishi sabablari va bu bilan bog'liq, ma'nolar ko'pchilikka tushunarli bo'ladi. Chunonchi: *Tursun, Turdi, O'lmas, Botir, Go'zal, Xudoyberdi* va b.

2. Mahalliy, mintaqaviy ismlar. Ba'zi ismlar umummilliy doirada emas, balki mintaq, hudud doirasida keng tarqalgan va o'sha hudud aholisi uchun tushunarli bo'lishi mumkin. Chunonchi, Qashqadaryoda **Qo'zigul** ismi ko'p uchraydi. Bu ism erta bahorda sariq rangli nozik gul ochuvchi o'simlik nomi bilan bog'liqdir va "qo'zigul" ko'karganda, ochilganda tug'ilgan qiz ma'nosidadir.

Ba'zi hududlarda Cho'tboy ismi mavjud va u teshaning mahalliy-lahjaviy nomi cho't so'zi bilan aloqadordir hamda Teshaboy ismining sinonimidir va b. Mahalliy mintaqaviy ismlarning ba'zilar keyinchalik keng tarqalib umummilliy ismlar doirasiga o'tishi mumkin.

3. Oilaviy doirada ma'lum ismlar. Bunday ismlarning yuzaga kelishi, ma'nosi o'sha nomni tanlagan yoki ijod qilgan kishilar doirasi uchungina ma'lum bo'ladi. Odatda, bunday nomlar ota-onalarning ma'lum individual xohish-istaklarini ifodalaydi yoki favqulodda yaratiladi. Bu kabi ismlar keyinchalik keng udum bo'lishi, kengroq tarqalishi tufayli umummilliy yoki mintaqaviy ma'lum nomlar qatoriga o'tishi mumkin. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, o'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan. Shu sababli bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik animistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, keyinchalik esa islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar, e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynagan.

Ayni vaqtda, o'zbek tilidagi ismlarning ma'lum qismi o'zbek xalqining yuksak madaniyati va ma'naviyati, nozik didi, go'zallik va nafosatga oid mayllar bilan

bog'liqdir. Shuningdek, hozirgi o'zbek tilidagi 300 dan ortiq ismlarning paydo bo'lishi va bolaga qo'yilish asoslarini ism beruvchilarning axloqiy-tarbiyaviy omillar bilan bog'liq istak-xohishlari tashkil qiladi. Masalan, o'z vatani, xalqi va zamonasiga munosib inson bo'lib yetishsin deb niyat qilinadi:

*Elsevar, Elumi, Elyor, Elbek, Eldosh, Ulus, Ulusbek, IftixorI.*

Bolaga ism qo'yishdagi erkinlik nomlarning milliy boyligidan muayyan ismni ixtiyoriy tanlashda namoyon bo'ladi. Lekin hech bir ota-ona o'zi yashayotgan muhit, davr, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, madaniy-ma'naviy turmush talablaridan tamoman chetga chiqib keta olmaydi. Chunki bu omillar kishi ismlarining yuzaga kelishi, o'zgarishi va rivoji uchun doimo sezilarli ta'sir o'tkazib turadi. Chunonchi, ibtidoiy jamoa va urug'chilik davrida ijod qilingan turkiy ismlarda ko'proq botirlik, jasurlik ramzi bo'lgan tushunchalar; chaqaloqning hayoti, uning sog'ligi, ulg'ayishini orzu qilish bilan aloqador tasavvurlar; go'zallik, o'ktamlik, chevarlik bilan bog'liq, estetik qarashlar. Mana shunday ismlarning bir qismi o'zbek tilida hozirda ham saqlanib qolgan: *Arslon, Burgutboy, Yo'lbars, Kumushoy* va b.

Ism islomning turli-tuman g'oyalari va aqidalarini ulug'lovchi so'z va atamalardan, iboralardan tanlanishi ham ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida Allohning nomi, sifatleri va unga itoatkorlikni ifodalovchi iboralardan yasalgan ismlar: *Abdulla, Abduvali, Abduvahhob, Abdujabbor, Abduqodir, Abdug'ani, Abdug'affor, Ollomurod, Otoqul*; payg'ambar va xalifalarning, shuningdek, aziz-avliyo va avliyozodalarning ism va laqablari: *Muhammad, Muhammadali, Aliqul, Alisher, Usmon*, zamirida diniy tushunchalar, g'oya va aqidalarni anglatuvchi so'zlar yotgan nomlar: *Ibodulla, Mo'min, Mo'mina, Ibodatxon* va b. asosiy o'rin tutadi.

O'tmish ajdodlarimiz ismlar boyligiga, bolani nomlash, yangi betakror ismlar ijod qilishga intilish odatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lgan, uni asrash va ko'paytirishga doimo intilgan. Biz hozirda mana shu muqaddas an'analarga sodiq bo'lmog'imiz kerak. Buning uchun kishilarda ismlarga va umuman nomlarga to'g'ri munosabatda bo'lish madaniyatini tarbiyalashimiz lozim. Ismlarga to'g'ri unosabatda bo'lish madaniyati yoki qisqacha qilib aytganda, nomlash madaniyati nimalarda namoyon bo'ladi?

Birinchidan, bolaga ism tanlash ishiga jiddiy o'ylab, iloji boricha an'analarga bog'lab yondoshish kerak. Ikkinchidan, kishining ismi sharifi va ota ismini rasmiy hujjatlar (tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, pasport va b.) da to'g'ri yozdirish lozim. Uchinchidan, kishining ismi sharifini aniq va to'liq aytish, to'g'ri talaffuz qilish, o'rinsiz ravishda shaklan buzmaslikka intilish kerak. To'rtinchidan, chaqaloqqa ism tanlaganda tildagi mavjud, tayyor nomlardan foydalanish bilan bir qatorda yangi, diqqatni tortuvchi, o'ziga xos ismlar ustida izlanish, ya'ni yangi, betakror ismlar ijod qilishga intilish lozim. Beshinchidan, ismlarimizda milliy ruhning saqlanishi, ularning ona tilimiz qonuniyat va talablariga mos bo'lishi uchun kurashmoq kerak<sup>2</sup>

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998, -Б. 587-594.
2. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998, -Б. 596-597.

Keltirilgan talablar nuqtayi nazaridan yondoshiladigan bo'lsa, keyingi paytlarda ism qo'yishda ma'lum kamchiliklar yuz berayotganini qayd etish mumkin. Ota-ona o'z farzandiga munosib ism tanlashga, ismning mazmunan go'zal, shaklan chiroyli bo'lishiga intilishi tabiiy bir hol. Bunday ismlarda, odatda, xolisona orzu-umidlar, farzandga bo'lgan mehr-muhabbat hamda ezgu orzular o'z mujassamini topadi. Lekin o'zbeklarda ism tanlashning keyingi paytlarda yuzaga kelgan ba'zi xususiyatlari, bir yoqlamalikka, faqatgina "chiroyli", "ko'rkam" nomlar orqasidan quvib ketish tilimizdagi ismlar boyligining miqdoran kamayishiga, bolani nomlash rasm-rusmlarining siyqalashuvi, tilda bir xil o'xshash ismlarning keng tarqalishiga, natijada jamiyatda bir xil ism bilan ataluvchi shaxslar sonining ko'payib ketishidek salbiy holga olib keldi.

O'z tarixida bir necha minglab ismlarni ijod qilgan va ulardan atoqli ot sifatida foydalanib kelgan xalqda bir guruh ismlarigina "yaxshi nom" sifatida taqdim etish, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbeklar ismi doirasini torayib ketishidek salbiy natijalar ham berdi. Bugina emas, eng muhimi, bolani nomlashda zaruriy rasm-rusmlar, milliy an'ana va talablar unutilayozdi3.

3. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1998, -Б. 598.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adulaziz Mansur., Bahmanyor Shokir. Musulmonchilikdan ilk saboqlar. –Toshkent, 1992.
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi. –Toshkent: Fan, 2013. –264 b.
3. kizi Yusupova, S. T., & Sayidrahimova, D. S. (2022). ABOUT THE CLASSIFICATION OF RELIGIOUS TEXTS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 63-65.
4. Rozikova, G. Z., & Yusupova, S. T. (2021). METAPHOR AS A LINGUOCULTUROLOGICAL PHENOMENON. Theoretical & Applied Science, (12), 1086-1088.
5. kizi Yusupova, S. T. (2019). STUDY OF RELIGIOUS FUNCTIONAL STYLE IN THE WORLD LINGUISTICS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 173-178.
6. Qizi, Y. S. T. (2020). Religious speech and phonetic interference. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 679-683.
7. Yusupova, S. T., & Anvarova, F. A. (2020). Linguoculturological investigation of zoonyms in Englishand Uzbek. ISJ Theoretical & Applied Science, 11 (91), 78-80.